



## BOLALAR VA O'SMIRLARDA GELMENTLAR TANA PARAZITLARI

**Murtozayev Islom Ro'zimurot o'g'li**

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti*

*Tibbiy profilaktika fakulteti Gigiyena kafedrası 1 – bosqich magistratura rezidenti*

*E-mail: [islom.murtozayiv@gmail.com](mailto:islom.murtozayiv@gmail.com)*

*Samarqand davlat universiteti*

**Xoldarova Zarina Ravshan qizi**

*Amaliy matematika kafedrası 1-bosqich magistratura rezidenti*

*E-mail: [xzarina@gmail.com](mailto:xzarina@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Jahondagi eng muammoli masalalardan biri insonlarning gelmintozlar bilan kasallanishi hisoblanadi. O'zbekistonda ham bugungi kunda aholi orasida, ayniqsa bolalar orasida gelmintozlar bilan kasallanish holati juda ko'p uchraydi. Bu kasallik hozirgi kunga kelib bolalar va o'smirlar qatlamida ham keng tarqalib bormoqda. Bu kasallikning hozirgi kunga kelib ayniqsa yosh organizmlar o'rtasida ham ko'plab uchrab turishi ularning faqatgina sog'lig'iga ta'sir etibgina qolmasdan, balki ularning har tomonlama yetuk darajada rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.*

**Kalit so'zlar:** *bolalar, o'smirlar, gelmintozlar, gijja, tashxis, davolash, , oldini olish.*

### **Muammoning dolzarbligi.**

Bugungi kunda jahondagi eng muammoli masalalardan biri insonlarning gelmintozlar bilan kasallanishi hisoblanadi. O'zbekistonda ham bugungi kunda aholi orasida, ayniqsa bolalar orasida gelmintozlar bilan kasallanish holati juda ko'p uchraydi. Bunga sabab yosh bolalarning shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilamasliklari, ho'l meva mahsulotlarini yaxshi yuvmasdan istemol qilishlari, yaxshi pishirilmagan kalbasa va sasiska mahsulotlarini istemol qilishlari sabab bo'ladi.

Mamlakatimizda umumiy aholisining 14 million 754 minggini 43% ini 18 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich esa mamlakatimizda bolalar va o'smirlarimizning gelmintozlar bilan kasallanishga moyilligini ancha oshiradi. Shu maqsadda bugungi kunda bolalar va o'smirlarning gelmintozlar bilan kasallanishini oldini olish maqsadida Sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi xizmati hodimlari joylarda sanitar targ'ibot tadbirlarini o'tkazib kelmoqda. Yuqimli va parazitar kasalliklar laboratoriyalarida gelmintoz kasalligida gumon qilingan kishilardan olingan namunalar tekshirilmoqda.

Bu borada aholi ovqat ratsioni tarkibini gigienik baholash va salomatlik holatiga bog'liqligini ilmiy asoslash, suvning gigienik talablarga mos kelishini ta'minlash mezonlarini takomillashtirish, oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta'minlashda chora-tadbirlar ishlab chiqish, aholi iste'mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlari, tuproq, suv, atmosfera havosini ifloslanish darajasining ko'p yillik dinamikasini sanitariya-gigienik baholash va atrof-muhit omillariga salbiy ta'sirini



kamaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Atrof-muhitning turli omillari inson salomatligida aks etishi mumkinligi bizga ma'lum. Shu bilan birga, so'nggi o'n yillarda kuzatilayotgan aholi salomatligining yomonlashishi atrof-muhitning turli omillarining zararli ta'siri bilan bog'liq ekanligi ham tan olingan. Xususan gelmintozlarni yuqitirib olishda tuproq, suv, gelmintoz bilan kasallangan hayvon go'shtini yaxshi pishirmasdan istemol qilish kasallikni yuqitirib olishdagi eng asosiy sabablardan biri bo'lib hisoblanadi.

Gelmintozlar-parazit chuvalchanglar-gelmintlar qo'zg'atadigan kasalliklardir. Odam organizmida asosan 2 turdagi gelmintlar parazitlik qiladi (yassi va yumaloq chuvalchanglar). odamda ko'p uchraydigan gelmintlar quyidagi sinflarga kiradi: trematodalar yoki so'rg'ichlilar (**Trematoda**); sestodalar yoki lentasimon chuvalchanglar (**Cestoda**); nematodalar yoki yumaloq chuvalchanglar (**Nematoda**).

Bugungi kunda odamlar orasida eng ko'p uchraydigan gelmintozlardan biri gijja paraziti hisoblanadi. Asosan bolalar, ovchilar, baliqchilar va ularning oilalarida, shuningdek, qishloq joylarda yshovchi kishilarda uchraydi. Bu bir qator parazitlar inson va o'simliklar hisobiga yashaydi va ularning ichida rivojlanadi va ko'payadi.

#### **Gelmentlar — tana parazitlari**

Odam va hayvonlarning a'zo va to'qimalari hisobiga yashovchi mayda chuvalchanglar - gijjalar (gelmintlar), ular keltirib chiqaradigan kasalliklar gelmintozlar deyiladi. Insoniyatga gelmintozlar juda qadim zamonlardan ma'lum bo'lib, ular barcha parazitlar kasalliklarining 90 foizni tashkil qiladi.

Kasallik manbai bemor odam va [gijjalar](#) bilan zararlangan hayvonlar hisoblanadi. Qo'zg'atuvchining turi, yuqish yo'li va yuqish omillariga ko'ra gelmintozlar uchga bo'linadi:

#### **Biogelmintozlar**

Bu turdagi kasallikda gijja lichinkalarining invaziya (yuqumlilik darajasi) bosqichi ga qadar yetilishida oraliq xo'jayin, tirik organizm - ya'ni, biologik muhit kerak bo'ladi.

#### **Geogelmintozlar**

Bu turdagi gelmintozda lichinkalarning yuqumlilik bosqichiga qadar yetilish jarayoni tuproqda yuzaga keladi

#### **Kontagioz**

Kontagioz ya'ni, muloqot orqali yuqadigan gelmintozlar - ushbu turdagi gelmintlar odamdan odamga bevosita iflos qo'llar, uning ichki kiyimi, choyshablari, yuvinishda ishlatiladigan buyumlari va maishiy anjomlar orqali yuqadi. Muloqot yo'li orqali yuqadigan gijjalarga enterobioz va gimenolepidoz kasalliklari kiradi.

Xastalikning bu turlari asosan bolalar orasida keng tarqalgan. Ular najaslari orqali tashqi muhitni gijja tuxumlari bilan ifloslantiradilar. Zararsizlantirilmagan najasni dala hamda ekinzorlarda o'g'it sifatida ishlatilishi va rezavor meva hamda sabzavotlarning ifloslangan suvlari bilan sug'orilishi ham bu xastalikning keng tarqalishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari gijja kasalligi bilan kasallangan itlarning ekinzorlarda oralab yuris





hi natijasida yetishtirilayotgan sabzavotlar, rezavorlar va ko'katlar gijja tuxumlari bilan ifloslanadi. Odamlar yaxshi yuvilmagan sabzavotlar, rezavor mevalar va ko'katlarni iste'mol qilish orqali o'zlariga gijja tuxumlarini yuqtirib oladilar.

Aynan sabzavotlar, rezavor mevalar va ko'katlar orqali [askaridoz](#), trixotsefalyoz, ankilostomidoz, strongiloidoz va [exinokokkoz](#) kabi gijja kasalliklari kelib chiqadi.

### **Asorati Siz o'ylagandan ham og'ir dard**

Gijjalar inson organizmiga zaharli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ular [allergik reaksiyalar](#)ni keltirib chiqaradi. Yana organizmning har xil yuqumli kasalliklarga qarshi kura shish qobiliyatini pasaytiradi. To'qima va qon tomir devorlarini mexanik shikastlanishiga sabab bo'ladi. Odam tanasiga tushgan vitaminlar va mineral moddalarni o'zlashtiradi. Ular asab tizimiga ham katta salbiy ta'sir ko'rsatadi.

### **Kasallik belgilari**

Gijja kasalligiga chalingan bemorlarda holsizlik, tez charchash, bosh og'rig'i, qorin sohasida og'riq, ko'ngil aynishi, asabiylik, allergik toshmalar va terida har xil dog'larning paydo bo'lishi kabi klinik belgilar kuzatiladi. Ushbu dard o'z vaqtida to'liq davolanmasa yosh bolalarda jismoniy va aqliy rivojlanishning ortda qolishi, epileptik tutqanoq kasalligi kabi jiddiy asoratlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Bundan shunday xulosa qilish mumkin, ya'ni gelmintoz nafaqat alohida a'zo, balki butun organizmning og'ir dardi bo'lib, uning belgilari paydo bo'lganda o'z vaqtida shifokorga murojaat etish zarur.

### **Xastalikdan saqlanish yo'llari**

Kasallikni davolagandan ko'ra uning oldini olish muhim hisoblanadi. Gelmintozning oldini olishda shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilish shart. Har bir odam o'zining shaxsiy gigiyena vositalariga ega bo'lishi lozim. Ovqatlanishdan oldin, hojatxonaga kirib-chiqqach, eshik tutqichlarini ushlagach, tuproq bilan ishlagandan so'ng va bolalar ko'chada o'ynab kelganda qo'lni sovun bilan yaxshilab yuvish lozim. Shuningdek, tirnoqlarni kalta qilib olish zarur. Polizda, bog'da ishlash vaqtida qo'lni og'izga solishdan saqlanish kerak. Ayniqsa, qo'lni og'izga tiqish kabi salbiy odat ko'pincha yosh bolalarga xos.

*Gijja tuxumlarini meva-sabzavotlar va ko'katlar orqali yuqishini oldini olish uchun ularni oqar suvda yaxshilab yuvish shart. Ko'katlarni avval sho'r suvda ivitib qo'yib, keyin oqar suvda obdon yuvib, so'ngra iste'mol qilish tavsiya etiladi.*

Uyda va maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni parvarish qilishda ishlatiladigan buyumlar va o'yinchoqlarning toza saqlanishiga doim e'tibor qilish zarur. Bolalar tuvagi, stullar, o'yinchoqlar, hojatxona eshigi va poli har kuni zararsizlantiruvchi vositalar yoki qaynoq suv bilan yaxshilab tozalanishi shart. Havodagi chang bilan birga gijja tuxumlarini og'iz va nafas olish yo'llari orqali organizmga tushishini oldini olish maqsadida xonalarda muntazam namli tozalash ishlari olib borilishi, hovlilar suv sepib supirishi maqsadga muvofiqdir.

Ochiq suv havzalari suvini faqat qaynatib ichish, har doim yaxshi pishirilgan va qovurilgan go'shtni iste'mol qilish talab etiladi.



Gelmintoz kasalligi belgilari paydo bo'lganda darhol mutaxassisga murojaat qilish darkor. Yana tegishli laboratoriya tahlillarini topshirish va uning natijalari asosida shif okor maslahati bilan o'z vaqtida davolash kurslarini to'liq amalga oshirish bemorning ushbu dardni jiddiy asoratsiz yengib tezda oyoqqa turib ketishiga sabab bo'ladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki gelmintozi bolalar va o'smirlar uchun balki, butun insoniyat uchun xavfli parazitlar hisoblanadi. Bu parazitlarning inson organizmiga kirishi oqibatida bir qator buzilishlarga olib keladi. Gelmintozlardan himoyalashning eng yaxshi usuli meva sabzavotlarni yaxshi yuvib istemol qilish, ochiq suv havzalari suvlarini faqat qaynatib ichish, har doim yaxshi pishirilgan va qovurilgan go'shtni iste'mol qilish talab etiladi. Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni imkon qadar sog'lom ovqatlanishiga e'tiborli bo'lish, ularning kunlik teirga, vitaminlarga bo'lgan ehtiyojini imkon qadar qondirish kerak. Har bir oilada ota – onalar o'z farzandlariga e'tiborli bo'lishi va farzandlarining ushbu kasalliklarga chalinmasligi uchun yetarlicha bilim va ko'nikmalarga ega bolishlari kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Толоконская Н.П., Чабанов Д.А., Лапицкая Н.П., Литвинова М.А. Применение гомеопатических средств для лечения кожного лейшманиоза// Медицинская паразитология и паразитарные болезни. – 2005. – №2. – С. 42-44.
2. ЛАТЕНТНЫЙ ДЕФИЦИТ ЖЕЛЕЗА У ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ: СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ Тарасова И. С. 1, 2, Чернов В. М. 1, 2 Педиатрический вестник Южного Урала № 2, 2020
3. V.M.Majidov "yuqumli kasalliklar". Ibn Sino nomidagi nashriyot-manba birlashmasi Toshkent 1993.
4. Учебник / В. Д. Беляков. Р.Х-Яфаев // Эпидемиология. — М.: Медицина, 1989. -416 с.:
5. Учебник / В.И. Покровский, С.Г. Пак, Н.И. Брико, Б.К. Данилкин.// Инфекционные болезни и эпидемиология -2-еизд. - М.:ГЭОТАР-Медиа,2007. - 816 с.:
6. Учебник / О.М.Миртазаев / эпидемиология фанидан амалий машғулотлар учун қўлланма. 2015й. -209 с.:
7. Учебник / О.М.Миртазаев., Л.П.Зуева., Г.С.Матназарова // Эпидемиология. 2016. -598 с.:
8. Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti rasmiy sayti mt.sammu.uz